

“TASDIQLAYMAN”

Andijon viloyat statistika

boshqarmasi boshlig'i

N.G. To'xtaboyev

2024-yil “ ” -

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Andijon viloyati Statistika boshqarmasida  
2024-yilda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy

### KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR REJASI

T.R	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
1	O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 4 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-son Qonunida vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari uchun belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash	Boshqarma tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etishda qonunchilik hujjatlari talablarini bajarish	2024 yil davomida	Boshqarmaning barcha tarkibiy tuzilmalari
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-240-son qaroring tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlarni tashkil etish	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va aniqlash O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022 yil 8-avgutdagi 3383-son qo'shma qaroridagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari. shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan	2024 yil davomida	Boshqarmaning barcha tarkibiy tuzilmalari

		yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti asosida amalga oshiriladi.		
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarorini tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlarni tashkil etish	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish	2024 yil davomida	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari barcha tarkibiy tuzilmalar
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmonning tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlarni tashkil etish.	Ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi xisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish	2024 yil davomida	Boshqarmaning barcha tarkibiy tuzilmalari
5	O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish	Aholi, tadbirkorlik subyektlari, jumladan. statistika xisobotlarini topshiruvchi respondentlar, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlar va tizim xodimlari ishtirokida: - davra suxbatlari; - seminarlar; - konferensiyalar; - treninglar va boshqa tadbirlarni tashkil etish	2024 yil davomida	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari, Yuridik xizmat, barcha tarkibiy tuzilmalar
6	Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan	1. Ko'rgazmali materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va broshyuralar)ni tayyorlash. 2. Tayyorlangan materiallarni aholi,	2024 yil davomida	Boshqarmaning barcha tarkibiy tuzilmalari

	tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va broshyuralar)ni tayyorlash va tarqatish.	talbirkorlik subyektlari vakillari, statistika xisobotini topshiruvchi subyektlar vakillariga tarqatish		
7	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari bo'yicha ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida keng axborot-targ'ibot ishlarini olib borish.	Ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida keng axborot-targ'ibot ishlarini olib borish.	2024 yil davomida	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, Yuridik xizmat, Axborot xizmati, barcha tarkibiy tuzilmalar
8	Korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida davlat statistika organlari mansabdor shaxslari va xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish	Statistika organlari xodimlari tomonidan mansab vakolatlarini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya xolatlarini oldini olish, amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida, ularga normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur yetkazish bo'yicha seminar va davra suhbatlari tashkil etish	2024 yil davomida	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, Yuridik xizmat, Axborot xizmati, barcha tarkibiy tuzilmalar
9	Statistika boshqarmasi xodimlarining: - odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari: - o'z kasbga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish; - yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda halollik. xolislik, beg'arazlik tamoillariga rioya qilishlarini ta'minlash: - loqaydlik va boshqa salbiy xolatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	1. Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish. 2. Odob-axloq qoidalarini tushuntirishga, xodimlarning o'z kasbga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga, halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilish va salbiy xolatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan seminar, davra suhbatlari tashkil etish.	2024 yil davomida	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, Yuridik xizmat, Axborot xizmati, barcha tarkibiy tuzilmalar